



ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT DASTURLARINING O'RNİ VA AHAMIYATI

THE ROLE AND IMPORTANCE OF GOVERNMENT PROGRAMS IN FINANCING INVESTMENTS IN FIXED CAPITAL

**¹Xoshimov Sobir
Murtazayevich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD). **G-mail:** sobirhosimov7@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada asosiy kapitalga investitsiyalar tushunchasining iqtisodiy mazmun-mohiyati turli iqtisodchi olimlarning nazariy qarashlari va yondoshuvlari asosida tadqiq etilgan. Bundan tashqari, milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat dasturlarining ahamiyati, bu borada rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribalari o'rganilgan. Rivojlangan mamlakatlarda yirik infratuzilma va innovatsion investitsiya loyihalari davlat investitsiya dasturlari doirasida qo'llab-quvvatlanishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa davlat investitsiya dasturlari ko'proq iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi lokomotiv sifatida qaralishi aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot yakunida tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Eng. - The article attempts to reveal the economic content of the concept of fixed capital investments based on the theoretical views and approaches of various economists. In addition, the importance of state programs in financing fixed capital investments in the national economy, the experience of developed and developing countries in this regard, is studied. It was found that in developed countries, large infrastructure and innovative investment projects are supported within the framework of state investment programs, while in developing countries, state investment programs are considered more as a locomotive that stimulates economic growth. Also, at the end of the study, relevant conclusions and recommendations are given.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya, asosiy kapital, jismoniy aktivlar, davlat dasturi, yalpi talab, infratuzilma, modernizatsiya, marjinal samaradorlik, investitsiya siyosati.*

❖ *investment, fixed capital, physical assets, government program, aggregate demand, infrastructure, modernization, marginal efficiency, investment policy.*

Kirish.

Hozirgi global iqtisodiy raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va tarmoqlarni modernizatsiya qilishda asosiy kapitalga investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat

kasb etmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilash, infratuzilmani rivojlantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymat

yaratuvchi tarmoqlarni shakllantirishning muhim moliyaviy manbai hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash jarayonida davlat dasturlari asosida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab olingan. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan tarmoq va hududiy rivojlanish dasturlari, investitsiya loyihalari dasturlari hamda milliy strategiyalar asosiy kapitalga investitsiyalar hajmini oshirish, ularning samaradorligini ta'minlash va xususiy sektor faolligini rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat dasturlari nafaqat to'g'ridan-to'g'ri budjet mablag'lari orqali investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, balki qulay institutsional muhit yaratish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, yirik infratuzilma loyihalari, sanoat zonalari, ijtimoiy soha ob'ektlari hamda strategik tarmoqlarni rivojlantirishda davlat dasturlarining moliyaviy va tashkiliy ahamiyati yanada ortib bormoqda.

Mamlakatda investitsiya sohasidagi islohotlar va ularning natijalari Prezident Sh. Mirziyoyev murojaatnomasida ham o'z aksini topdi. "Masalan, sanoatda yuqori texnologik va kam energiya iste'mol qiladigan tarmoqlarni rivojlantirganimiz hisobiga joriy yilda 1 dollar mahsulot uchun sarflanadigan yoqilg'i-energiya miqdorini 13 foizga kamaytirishga erishdik. Birgina shuning o'zi yana 1 milliard dollarlik qo'shilgan qiymat yaratish imkonini berdi. Kelgusi yilda 50 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilamiz. Bundan buyon har bir dollar investitsiya, eng avvalo, ilg'or texnologiyalar va ularning transferi; tashqi bozori aniq, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga; energiya, suv, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirishga; mahalliy ishchilarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o'qitish va

mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Ya'ni, yuqori texnologiya va yangi kompetensiyalar olib kirgan, eksport uchun ishlagan investor eng ishonchli hamkorimiz bo'ladi" [1].

Shu boisdan, asosiy kapitalga investitsiyalarni davlat dasturlari orqali moliyalashtirish jarayonida resurslardan samarali foydalanish, investitsiya loyihalarini tanlash mezonlarini takomillashtirish va natijadorlikni baholash masalalarini ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Bu jarayonda davlat dasturlarining asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va samaradorligiga ta'sirini o'rganish, ularning iqtisodiy ahamiyatini ilmiy asoslash mazkur maqolaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Jahon iqtisodiy adabiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va texnologik yangilanishning asosiy omili sifatida qaraladi. Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari, xususan R. Solou va E. Denison [2], asosiy kapitalga investitsiyalarni iqtisodiy o'sish modellarining muhim tarkibiy qismi sifatida izohlaydilar. R.Solou modelida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Keynscha yondashuvda Dj.M. Keyns [3], esa asosiy kapitalga investitsiyalar yalpi talabni rag'batlantiruvchi vosita sifatida talqin qilinib, davlat investitsiyalari iqtisodiy faollikni tiklashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Dj.M. Keynsning ta'kidlashicha, asosiy kapitalga investitsiya qilish qarorlari kapital ob'ektidan kelgusida olinishi kutilgan daromadlar hajmi hamda ushbu kapitalni hozirgi vaqtda yaratish yoki xarid qilish qiymati o'rtasidagi nisbatga bog'liqdir. Muallif bu nisbatni kapitalning marjinal samaradorligi deb atab, investitsiya faolligi ushbu ko'rsatkich foiz stavkasi bilan taqqoslangan holda

shakllanishini ta'kidlaydi. Agar kapitalning marjinal samaradorligi bozor foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiya qilish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Institutsional iqtisod maktabi vakillari D. Nort, O. Uilyamson [4], asosiy kapitalga investitsiyalarning samaradorligi institutsional muhit, mulk huquqlarining himoyasi va shartnomaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlaydilar. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tadqiqotlarida asosiy kapitalga investitsiyalar infratuzilma, sanoat va innovatsion salohiyatni oshirish orqali mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi omil sifatida baholanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda asosiy kapitalga "investitsiyalarning xarajat xarakteri" tushunchasi ham mavjud. "Ushbu yondashuv jismoniy aktivlar va ularni sotib olishga qaratilgan"[5]. T.V. Shapalovaning fikricha: "jismoniy kapital ishlab chiqarish resurslari, masalan, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun foydalaniladigan asbob-uskunalar, binolar va boshqa obyektlar zaxiralari sifatida tavsiflanadi" [6]. A.A. Xalyapin va Yu.V. Maslovalarning ta'kidlashicha: "asosiy kapitalga investitsiyalar korxonaning iqtisodiy faoliyatining istalgan sohasida barqaror ishlashi ushuni asos yaratadi" [7].

Investitsiyalarning mazmun-mohiyati o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham keng o'rganilgan. Masalan, D.G'. G'ozibekov investitsiyalarning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi" [8]. Ushbu ta'rif investitsiya jarayonining murakkabligini, ya'ni mablag' manbalarining ishonchliligi, ularni oqilona taqsimlash, risklarni boshqarish va kapitalning qiymatini saqlash kabi omillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, investitsiyalar faqat

moliyaviy resurslarni jalb etish emas, balki ularni samarali boshqarish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, investitsiyalarni to'g'ri moliyalashtirish va ularning samaradorligini ta'minlash iqtisodiy siyosatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, B. To'xlijev tomonidan "investitsiya nazariyasi, investitsiya faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari o'rganilgan. Investitsiyalarning mazmuni, iqtisodiy mohiyati yuzasidan hamon olimlar tomonidan yakdil bir to'xtamga, ta'rifga kelinmaganligi ta'kidlab o'tiladi" [9]. Ko'proq investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlariga urg'u berilib, aynan asosiy kapitalga investitsiyalarning nazariy asoslari o'rganilmagan. N.G'. Karimovning ilmiy asarlarida "kapital bozori vositalari va kredit instrumentlari evaziga investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, qimmatli qog'ozlarning investorlar uchun jozibadorligi tahlil qilingan"[10]. Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltiriladigan investitsiyalarning o'ziga xos jihatlari, ularning kapital qo'yilmalar va real investitsiyalardan farqlanuvchi tomonlari hozirgi kunga qadar yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish, statistik hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, infratuzilmani rivojlantirish, aholi turmush darajasini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonning davlat investitsiya dasturlari barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim vositasidir.

O'zbekistonda har yili "Davlat investitsiya dasturi" qabul qilinadi. Shu asosda, mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan asosiy

loyihalar va ularni moliyalashtirish manbalari aniqlanib, tartiblangan shaklda keltiriladi (1-jadval).

1-jadval

Davlat investitsiyalari amalga oshiriladigan sohalar [11]

<i>Budjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirish</i>	<i>Davlat kafolatlari asosidagi kreditlar</i>	<i>Strategik tarmoqlardagi investitsiyalar</i>	<i>Hududiy rivojlantirish dasturlari</i>
<i>Yirik ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari (maktab, shifoxona, yo'l, suv ta'minoti).</i>	<i>Halqaro moliya institutlari va xorijiy banklardan jalb qilingan mablag'lar.</i>	<i>Energetika, transport, sanoat va agrar sohadagi yirik islohotlar.</i>	<i>Iqtisodiy jihatdan orqada qolgan hududlarga qo'shimcha kapital yo'naltirish.</i>

Mahalliy va davlat dasturlari iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali resurslarni samarali taqsimlash, infratuzilmani rivojlantirish, ish o'rinlarini yaratish va aholining turmush darajasini oshirish kabi strategik maqsadlar amalga oshiriladi. Shu bois, mazkur dasturlar iqtisodiy siyosatning asosiy vositasi sifatida qaraladi va ularning ijrosi orqali davlatning investitsiya siyosati samaradorligi hamda milliy kapitalning rivojlanish sur'ati oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining 34-yillik tarixida davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonini tahlil qiladigan bo'lsak, dastlabki 1991-2000-yillarda mamlakat iqtisodiy tizimining tubdan o'zgarishi natijasida iqtisodiyotda davlat asosiy investorga aylandi. Asosiy kapitalga investitsiyalar asosan davlat budjeti mablag'lari va xalqaro moliyaviy institutlar kredit mablag'lari hisobidan amalga oshirildi. Iqtisodiyot tarmoqlarining energetika (Navoiy, Talimajon GES va IES), transport (temir yo'l va avtomobil yo'llari) va ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi shular jumlasidandir. Ikkinchi davr 2000-2010-yillarni qamrab olib, bozor islohotlari va tashqi investitsiyalarni jalb qilish biroz jonlandi. Bu davrlarda davlatning yirik strategik loyihalarda yetakchilik roli saqlanib qolgan bo'lsada, xususiy sektorning ulushi ortib bordi. Modernizatsiya va industrial rivojlanish davri deb ataladigan uchinchi davr 2010-2016-yillarga to'g'ri kelib, bu davrda infratuzilmani yangilashga harakat qilindi, dasturlar asosida Navoiy va Angren erkin

iqtisodiy zonalarini tashkil etildi, yangi energiya obyektlari hamda iqtisodiy muhim transport loyihalari amalga oshirildi. Ta'kidlab o'tish joizki, davlat dasturlari mamlakat eksportini rivojlantirishga yo'naltirildi. To'rtinchi davr islohotlar va oshiqlik siyosati davri sifatida shakllandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu davrda mamlakat rahbari boshchiligidagi yangi davlat investitsiya siyosati yuritildi, dasturlar parlament va jamoatchilik hukmiga muhokama uchun havola etilib shaffoflik ta'minlanmoqda. Asosiysi, iqtisodiyotda zamonaviy talqindagi yo'nalishlar: davlat va xususiy sektor subyektlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi DXSH tamoyillari, hududlar va tarmoq yo'nalishlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni yo'naltirish, energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurish (shamol va quyosh stantsiyalari) transportda (yangi metro liniyalari va avtomobil yo'llari), ijtimoiy sohada (maktab va shifoxonalar) qurilishi amalga oshirildi.

Davlat dasturlari kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda strategik yo'nalishlarni belgilaydi, investitsiya manbalarini tartibga soladi va iqtisodiy rivojlanishning ustuvor sektorlarini aniqlaydi. Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi bu dasturlarni samarali shakllantirish va ularni amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha qimmatli ma'lumot beradi, rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish esa mahalliy sharoitga moslashgan siyosat va mexanizmlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda rivojlangan davlatlar tajribasi [11]

Germaniya	Hukumat birinchi navbatda energiya samaradorligi, yashil iqtisodiyot va raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritadi. Xususiylar investorlarga investitsiya dasturlari orqali soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar taklif etiladi. Hukumatning asosiy vazifasi huquqiy asoslar, kafolatlar va qoidalarni yaratishdir. Moliyalashtirish odatda davlat-xususiylar sheriklik (DXSh) orqali amalga oshiriladi.
AQSh	Infratuzilma dasturlari asosiy investitsiyalarning katta qismini tashkil etadi: yo'llar, ko'priklar va energiya tarmoqlari. Federal va davlat budjetlaridan tashqari, xususiylar investitsiyalar va pensiya jamg'armalari ham hissa qo'shadi. Masalan, Infratuzilmaga investitsiyalar va ish o'rinlari to'g'risidagi qonun (2021) orqali bir trillion AQSh dollaridan ortiq mablag' ajratildi. Hukumatning vazifasi katta moliyaviylar yordam va huquqiy kafolatlar berishdan iborat.
Yaponiya	Asosiy kapitalga investitsiyalar, birinchi navbatda, davlat dasturlari doirasida infratuzilma, transport va innovatsiyalarga yo'naltirilgan. Iqtisodiy inqiroz davrida hukumat budjet investitsiyalari orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi. Yaponiya banki davlat dasturlari uchun past foizli kreditlar va moliyaviylar yordam beradi. Xususiylar sektor faol ishtirok etmoqda, lekin innovatsiyalar yo'nalishini hukumat belgilaydi.
Buyuk Britaniya	Hukumat investitsiya dasturlari birinchi navbatda transport, sog'liqni saqlash infratuzilmasi va yashil energiyaga qaratilgan. Asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy qismi DXSH va konsessiya asosida amalga oshiriladi. Hukumatning roli loyihalarni kafolatlash, siyosiy barqarorlik va qonunchilik bazasini ta'minlashdan iborat.
Kanada	Davlat dasturlari kapital qo'yilmalarni infratuzilma va ijtimoiylar sohalarga yo'naltiradi. "Invest in Canada" dasturi xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yaratadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash soliq imtiyozlari, subsidiyalar va loyiha kafolatlari orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yirik infratuzilma va innovatsion investitsiya loyihalari davlat investitsiya dasturlari doirasida qo'llab-quvvatlangan. Bu jarayonda davlatning asosiy vazifasi qulay investitsion muhit yaratish, moliyaviylar kafolatlar berish va qonun ustuvorligini ta'minlashdan iborat bo'lgan. Moliyaviylar mexanizmlar sifatida davlat-xususiylar sheriklik (PPP) modeli, soliq imtiyozlari hamda subsidiyalar tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Muhim xulosa shundan iboratki, davlat ushbu yo'nalishda bevosita investor sifatida emas, balki investitsion faoliyatni jonlantiruvchi katalizator sifatida namoyon bo'lgan.

Shu o'rinda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga nazar tashlaganda, davlat dasturlari asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishda yetakchi o'rinni egallaganini ko'rish mumkin (3-jadval). Bu holat, bir tomondan, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va ijtimoiylar infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, xususiylar sektorning investitsion faolligini rag'batlantirish uchun zarur sharoit yaratadi. Natijada, davlat dasturlari investitsion jarayonlarning barqarorligini ta'minlash, kapital oqimini samarali boshqarish va iqtisodiy modernizatsiyani qo'llab-quvvatlashda muhim omil sifatida maydonga chiqadi.

3-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda rivojlanayotgan davlatlar tajribasi [11]

Hindiston	Asosiy kapitalga investitsiyalar, birinchi navbatda, avtomobil yo'llari, temir yo'llar, aeroportlar va energiya tarmoqlaridagi davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Rejalar Milliy infratuzilma quvuri (NIP) dasturi orqali trillionlab dollar sarmoya kiritishni nazarda tutadi. Hukumatning vazifasi xususiy va xorijiy investitsiyalarni kuchli jalb qilgan holda huquqiy kafolatlar va dastlabki investitsiyalarni ta'minlashdan iborat. Yo'l va aeroport sohalorida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda.
Braziliya	Davlat investitsiya dasturlari birinchi navbatda energetika, neft-gaz, transport va qurilish sohalariga qaratilgan. "Programa de Parcerias de Investimentos (PPI)" doirasida davlat-xususiy sheriklik mustahkamlandi. Asosiy kapital qo'yilmalarini moliyalashtirishda davlat banklari (masalan, BNDES) muhim rol o'ynaydi.
Turkiya	Investitsion dasturlar asosiy magistrallar, metro va aeroportlarni qurishga qaratilgan. Hukumat yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshiradi va xususiy sektorga kafolatlar beradi. Ko'plab yirik loyihalar davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida amalga oshirilmoqda (masalan, yangi Istanbul aeroporti).
Meksika	Asosiy kapitalga investitsiyalar birinchi navbatda energetika, neft va gaz va transport infratuzilmasiga yo'naltiriladi. Xorijiy investorlar davlat dasturlari orqali soliq va huquqiy imtiyozlarga ega bo'lmoqda. Keyingi yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida transport va energetika sohalari modernizatsiya qilindi.
Qozog'iston	Energetika, transport, sanoat va infratuzilmaga kapital qo'yilmalar davlat dasturlari orqali amalga oshiriladi. Katta sarmoyalar "Nurli yol" va "Qozog'iston 2050" dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Davlat strategik investor va kafil sifatida ishlaydi, erkin savdo zonalarini xususiy va xorijiy sarmoyalarni jalb qiladi.

Umuman olganda, rivojlanayotgan davlatlarda davlat dasturlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida o'sishni ta'minlaydigan lokomotiv sifatida qaralmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat dasturlari ijrosi yuzasidan davlat investitsiyalarining qiymati YAIMning o'rtacha 5 dan 7 foizgacha, rivojlangan mamlakatlarda esa YAIMning 2 foizdan 3 foizgacha o'zgarib turadi. 1970-yildan 2019-yilgacha Xitoyda davlat investitsiyalarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushining yuqori ko'rsatkichlari kuzatildi, ular 1970-yillarning boshlarida taxminan 10 foizni, 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida 20 foizdan ortiqni, keyin esa 15-18 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, AQSh, Germaniya, Fransiya va Rossiya kabi mamlakatlarda bu ko'rsatkichning qiymati butun davr mobaynida YAIMning 5-6 foizidan oshmagan. Hukumat tomonidan davlat budjeti

va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan markazlashgan investitsiyalarning oshishi mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashishiga, oxir-oqibatda aholi farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Davlat investitsiyalari uzoq muddatli aktivlarni shakllantirish va modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Ular iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirish va kapital resurslarini jalb qilish hamda samarali taqsimlash imkonini beradi. Shu tariqa, davlat investitsiyalari asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishning strategik mexanizmi sifatida mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Investitsiya faoliyatini tartibga solish va rag'batlantirishda, amalga oshiriladigan

investitsiya loyihalari xususiyati: tarmoq yo'nalishi, talab qilinadigan sarmoya miqdori va boshqa omillardan kelib chiqib, moliya va fiskal mexanizmlardan keng foydalanishi mumkin.

"Ekspertlar hisob-kitoblariga ko'ra, faqat iqlim o'zgarishi oqibatlarini bartaraf etish uchun global sarmoyaga bo'lgan talab 2030-yilga borib har yili 140-300 milliard AQSh dollarini, 2050-yilga kelib esa 280-500 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Bundan tashqari, ta'lim, sog'liqni saqlash, energetika va transport infratuzilmasiga davlat investitsiyalariga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligicha qolmoqda"[12]. Davlat investitsiyalarining eng qisqa muddatli davrlarda oshishi umumiy talabni ko'tarishga va shu orqali fiskal multiplikator ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, AQShda yillik infratuzilma investitsiya loyihalari 18 milliarddan 250 milliard dollargacha bo'lganida, 216 mingdan 3 milliongacha yangi ish o'rinlari yaratilgani kuzatilgan. Bu holat davlat sarmoyalarining iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy aholini ish bilan ta'minlashdagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi. "Shu bilan birga, XVJ ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, davlat investitsiyalarini ko'paytirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri turli darajadagi rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlar guruhlarida farqlanadi"[13]. "Iqtisodiyotlari rivojlangan mamlakatlarda davlat investitsiyalari hajmining oshishi iqtisodiy o'sishning jadallashuviga yordam beradi. Shunday qilib, yalpi ichki mahsulotdagi davlat investitsiyalari ulushining 1 foizga o'sishi ishlab chiqarishning o'sha yili taxminan 0,2 foizga va to'rt yildan keyin 1,2 foizga o'sishiga olib keladi, bu davlat investitsiyalari multiplikatorining boshqa baholari bilan tasdiqlanadi"[14]. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar miqdori, tashqi qarzlarni ko'paytirish hisobiga bo'lmasligi lozim. Balki, milliy boyliklarni sotish evaziga kelgan mablag'larni jahondagi eng yirik nufuzli tijorat banklariga depozitga

qo'yishdan yoki Amerika kapital bozoridagi samaradorligi yuqori obligatsiyalarga yo'naltirishdan olingan foyda hisobidan ko'paytirilishi lozim. Bu holat mamlakat oltin-valyuta zahiralari samarali boshqarishga ham bog'liqdir. Davlat investitsiyalarining ko'payishi o'z o'rnida xususiy investitsiyalarni ham rag'batlantiradi. "Bozor iqtisodiyotiga ega rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat investitsiyalarining ko'payishi qisqa muddatli va o'rta muddatli istiqbolda ishlab chiqarish hajmining oshishiga yordam beradi. Yalpi ichki mahsulotda davlat investitsiyalari ulushining 1 foiz punktga oshishi ishlab chiqarish hajmining o'sha yili taxminan 0,2 foizga, to'rt yildan keyin esa 0,5 foizga oshishiga olib keladi. Bu topilma boshqa tadqiqotlar natijalariga mos keladi" [15].

"Jahon banki tahlilchilarining fikricha, eng samarali davlat investitsiyalarini boshqarish tizimlari Chili, Irlandiya, Janubiy Koreya Respublikasi, Germaniya, Avstriya va Buyuk Britaniyada, eng kam samarali tizimlar esa Bolgariya, Sloveniya va Vengriya deb topilgan"[16]. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqilgan investitsiya strategiyalari izchil va tizimli xarakterga ega bo'ladi. Bunday mamlakatlarda davlat investitsiyalarini jalb qilgan loyihalar qat'iy metodologiya asosida baholanadi va bu jarayon tegishli qonun hujjatlari doirasida adolatli tarzda tartibga solinadi. Shuningdek, amaliyotda investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, loyihalarni dastlabki ishlab chiqish va tanlash tartiblari hamda ularni rasmiy baholash protseduralari aniq belgilangan. Masalan, Chilida loyiha takliflarining 5-8 foizi dastlabki ko'rib chiqish bosqishida rad etiladi. Aksincha, davlat investitsiyalarini boshqarish sust bo'lgan mamlakatlarda xususiy investitsiyalarning siqib chiqarilishi, ichki manbalar evaziga asosiy kapitalda davlat investitsiyalari miqdorining ortgani bilan, yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat tashqi qarzining oshib ketishi, ushbu investitsiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir

o'tkazadi. Ya'ni, olingan foydaning bir qismi davlat tashqi qarziga xizmat ko'rsatishga sarflanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlarini qisqartirgandan ko'ra, turli moliyalashtirish manbalaridan davlat investitsiyalarini ko'paytirish samarali hisoblanadi. Samarali yo'naltirilgan investitsiyalar yangi qiymat zanjirlarini yaratadi. Shu o'rinda, soliqlarni turini ko'paytirish yoki stavkasini oshirish evaziga olingan mablag'lardan investitsiya faoliyatini moliyalashtirish vaqtincha samara berishi mumkin. Eng asosiysi, soliq to'lovchilarni ko'paytirish lozim. Dunyo tajribasida, xorijiy investorlarga qo'shimcha soliq imtiyozlarini qo'llash orqali, masalan, investor tomonidan birlamchi investitsiya faoliyatidan olingan foydani reinvestitsiya qilganda, oldin to'lagan soliqlarning bir qismini qaytarish amaliyotlari mavjud.

Xulosa va takliflar.

Asosiy kapitalga investitsiyalar tushunchasining iqtisodiy mohiyati bo'yicha jahon olimlari tadqiqotlarida: iqtisodiy o'sish bilan uzviy bog'liqlik; texnologik taraqqiyot va innovatsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilganlik va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi strategik investitsiya sifatida qaralishi guvohi bo'ldik. MDH olimlari yondashuvlarining o'ziga xos jihatlari esa asosiy fondlarning jismoniy va ma'naviy eskirishini bartaraf etishga qaratilganligi, davlatning tartibga soluvchi roliga katta e'tibor berilganligi, investitsiyalarni sanoat siyosati bilan uyg'unlashtirish masalalari aniqlandi. O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlarida investitsiyalarning iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish vositasi sifatida qarashning mavjudligi, milliy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlik xamda davlat investitsiya

siyosatining ustuvorligi ko'zga tashlanadi. Tadqiqot doirasida asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda davlat dasturlarining o'rni va ahamiyati rivojlangan hamda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi misolida tahlil qilinib, milliy iqtisodiyot taraqqiyotida davlat investitsiya dasturlarining naqadar muhim ekani o'rganildi. Ushbu masalada asosiy xulosalar shuki: rivojlangan mamlakatlarda yirik infratuzilma va innovatsion investitsiya loyihalari odatda davlat investitsiya dasturlari doirasida rejalashtiriladi va qo'llab-quvvatlanadi. Bu mamlakatlarda davlatning moliyaviy resurslari va institutsional salohiyati yuqori bo'lgani uchun investitsiya loyihalari samarali boshqariladi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va texnologik yangilanishni rag'batlantirishga yo'naltiriladi. Boshqa tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat investitsiya dasturlari ko'proq iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi lokomotiv sifatida qaraladi. Bu davlatlarda davlat dasturlari investitsiya faolligini oshirish, ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shu tarzda, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi investitsiya siyosati farqli kontekst va strategik maqsadlar bilan belgilanadi, bu esa davlat investitsiyalarini boshqarish metodologiyasida muvofiqlik va moslashuvchanlikni talab qiladi. Shuningdek, mamlakatda korrupsiya va boshqa moliyaviy talon-tarojliklarning oldi olinmasa, davlat investitsiyalarining samaradorligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunga yechim sifatida markazlashgan investitsiyalardan to'g'ri yo'nalganlik, hisobdorlik, natijaviylik va yuqori samaradorlikni ta'minlovchi tizimli va sifatli boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 26.12.2025-y. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Robert M. Solow A Contribution to the Theory of Economic Growth *The Quarterly Journal of Economics*, Volume 70, Issue 1, February 1956, Pages 65–94, <https://doi.org/10.2307/1884513>; Denison, Edward F, 1980. "The Contribution of Capital to Economic Growth," *American Economic Review*, American Economic Association, vol. 70(2), pages 220-224, May.
3. Keynes, J. M. (1936). *The General Theory of Employment, Interest and Money*. Macmillan Cambridge University Press.
4. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge: Cambridge University Press; Williamson, O. E. (1985). *The Economic Institutions of Capitalism: Firms, Markets, Relational Contracting*. New York: Free Press.
5. Шевчук В.Я. Основы инвестиційної діяльності [Текст] / В.Я. Шевчук, П.С. Рогожин. – К.: Генеза, 1997. – С. 6.
6. Шаповалова, Т.В. Социальный капитал и физический капитал: сравнительный анализ [Текст] / Т. В. Шаповалова // *Альманах современной науки и образования*. – 2013. – № 9(76). – С. 182-186.
7. Халяпин А.А. Анализ инвестиций в основной капитал в России [Текст] / А.А. Халяпин, Ю.В. Маслова // *Научно-исследовательский журнал «Вектор экономики»*. – 2018. – №4. – С. 45-52.
8. G'. G'ozibekov. *Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. Monografiya*. T., 2003-yil. 26 bet.
9. B.K. To'xliev. *Investitsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. T., 2021-yil.
10. N.G'. Karimov (Karimov N.G. *Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari: o8.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. / O'zR Bank-moliya akademiyasi. – T., 2007. – 235 b.)*
11. *Iqtisodiy adabiyotlar va boshqa tadqiqotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*
12. E.V. Ordynskaya, M.V. Cherkovets and K.E. Savchishina. *Public Investment and Economic Growth in Different Countries // Studies on Russian Economic Development*. 2024.
13. Miyamoto, H., Baum, A., Gueorguiev N., Honda J., Walker S. *Growth Impact of Public Investment and the Role of Infrastructure Governance // Well Spent. How Strong Infrastructure Governance Can End Waste in Public Investment*. Editor: Mr. Gerd Schwartz, Ms. Manal Fouad, Mr. Torben S Hansen and Ms. Genevieve Verdier. International Monetary Fund. 03 September, 2020. URL: <https://www.elibrary.imf.org/display/book/9781513511818/9781513511818.xml?BookTabs=cited%20by>
14. Batini N., Eyraud L., Weber F. *A Simple Method to Compute Fiscal Multipliers // IMF Working Paper 14/93. International Monetary Fund. 2014. URL: https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2014/wp1493.pdf*
15. Batini N., Eyraud L., Weber F. *A Simple Method to Compute Fiscal Multipliers // IMF Working Paper 14/93. International Monetary Fund. 2014. URL: https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2014/wp1493.pdf*
16. Николаев И.А., Марченко Т.Е., Точилкина О.С. *Инвестиции как источник экономического роста // Общество и экономика. 2019. № 5. С. 5-27.*